

Samarqand viloyatida oliy ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
- II.** Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
- III.** Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
- IV.** Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
- VI.** Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari

Samarqand viloyatida 2025/2026- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni **14 tani** tashkil etgan va 2021/2022- o'quv yili boshiga nisbatan **2 taga**, ya'ni **16,7 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, birlik)

	Oliy ta'lim tashkilotlari soni, jami	umumiy soniga nisbatan % da
Samarqand viloyati	14	100,0
<i>shaxarlar:</i>		
Samarqand sh.	10	71,6
Kattaqo'rg'on sh.	1	7,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	1	7,1
Bulung'ur		
Jomboy		
Ishtixon		
Kattaqo'rg'on		
Qo'shrabot		
Narpay		
Payariq	1	7,1
Pastdarg'om		
Paxtachi		
Samarqand		
Nurobod		
Urgut	1	7,1
Toyloq		

2025/2026- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining eng ko'p qismi Samarqand shahrida (**10 ta**) qayd etilgan, nisbatan past ko'rsatkichlar esa Kattaqo'rg'on shahri (**1 ta**), Oqdaryo (**1 ta**), Payariq (**1 ta**) va Urgut (**1ta**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

**Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami qabul qilingan talabalar soni	jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da	qabul qilingan talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar
Samarqand viloyati	22,9	100	12,9	10,0
<i>shaxarlar:</i>				
Samarqand sh.	20,8	90,8	11,3	9,5
Kattaqo'rg'on sh.	1,1	4,8	0,9	0,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	0,4	1,7	0,1	0,3
Bulung'ur				
Jomboy				
Ishtixon				
Kattaqo'rg'on				
Qo'shrabot				
Narpay				
Payariq	0,01	0,01		0,01
Pastdarg'om				
Paxtachi				
Samarqand				
Nurobod				
Urgut	0,6	2,7	0,6	
Toyloq				

2025/2026- o'quv yili boshida, oliy ta'lim tashkilotlariga eng ko'p qabul qilingan talabalar soni Samarqand shahri (**20,8 ming**), Kattaqo'rg'on shahri (**1,1 ming**) va Urgut tumanida (**0,6 ming**) kuzatilgan, nisbatan kam talabalar Oqdaryo (**0,4 ming**), Payariq (**0,01 ming**) tumanlarida qabul qilinganligi qayd etilgan.

Kuzatilayotgan davr davomida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, ularning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **56,3 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **43,7 % ni** tashkil etgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat yo'nalishlariga qabul qilingan talabalar soni](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassislariga qabul qilingan talabalar soni](#)

II. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

Samarqand viloyatida 2020/2021- o'quv yilidan 2025/2026- o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni ortib borayotganligi kuzatilgan. Ushbu davr ichida talabalarning umumiy soni **23,1 ming kishiga**, ya'ni **32,6 %** ga oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan 2025/2026- yilda oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan qizlar soni **48,8** ming nafarga, o'g'il bolalar soni esa **45,1** ming nafarga yetdi. 2025/2026- o'quv yilida oliy ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar soni jami **93,9** ming nafarni tashkil etdi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami talabalar soni	jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da	tahsil olayotgan talabalar sonidan:		jami talabalar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	bakalav-riatda o'qiyot-ganlar	magist-raturada o'qiyot-ganlar
Samarqand viloyati	93,9	100	48,8	45,1	91,1	2,8
<i>shaxarlar:</i>						
Samarqand sh.	87,0	92,6	43,9	43,1	84,3	2,7
Kattaqo'rg'on sh.	3,1	3,3	2,7	0,4	3,1	0,04
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	1,8	1,9	0,6	1,2	1,7	0,07
Bulung'ur						
Jomboy						
Ishtixon						
Kattaqo'rg'on						
Qo'shrabot						
Narpay						
Payariq	0,05	0,02		0,05	0,05	
Pastdarg'om						
Paxtachi						
Samarqand						
Nurobod						
Urgut	2,0	2,2	1,6	0,4	2,0	
Toyloq						

2025/2026- o'quv yili boshida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarining eng katta qismi Samarqand shahri (**87,0 ming**), Kattaqo'rg'on shahri (**3,1 ming**), Urgut (**2,0 ming**) va Oqdaryo tumanlarida (**1,8 ming**) nafarni, qayd etgan, nisbatan kam ko'rsatkich esa Payariq tumanida (**0,05 ming**) nafarni tashkil qilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

III. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

2025- yilda Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni **20,2 ming kishini** tashkil etgan va 2021- yilga nisbatan ularning soni **12,6 ming kishiga**, ya'ni **37,6 %** ga oshgan. Bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **49,6 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **50,4 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni
(tegishli yili uchun, ming kishi)



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

**Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024- yil uchun, ming kishi)

	Jami bitiruvchilar soni	jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da	bitiruvchilar sonidan:	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar
Samarqand viloyati	20,2	100,0	10,0	10,2
<i>shaxarlar:</i>				
Samarqand sh.	19,5	96,5	9,6	9,9
Kattaqo'rg'on sh.	0,4	1,9	0,3	0,1
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	0,3	1,5	0,1	0,2
Bulung'ur				
Jomboy				
Ishtixon				
Kattaqo'rg'on				
Qo'shrabot				
Narpay				
Payariq	0,009	0,009	0	0,009
Pastdarg'om				
Paxtachi				
Samarqand				
Nurobod				
Urgut	0,04	0,1	0,03	0,01
Toyloq				


Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining eng ko'p qismi Samarqand shahri (**19,5 ming**), Kattaqo'g'on shahri (**0,4 ming**) va Oqdaryo tumanida (**0,3 ming**) qayd etilgan, nisbatan kam qismi esa Urgut (**0,04 ming**) va Payariq (**0,009 ming**) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Oqdaryo tumani (qiz bolalar ulushi ushbu hududdagi bitiruvchilarning umumiy sonidan **0,4 % ni** tashkil etgan) va Kattaqo'g'on (**1,4 %**) shahrida bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. Samarqand (**47,5 %**) shahrida esa aksincha, qiz bolalar ulushi o'g'il bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshida Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan professor-o'qituvchi xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) **3,6 ming kishini** tashkil etgan va 2021/2022- o'quv yili boshiga nisbatan **0,2 ming kishiga**, ya'ni **5,3 % ga** kamaygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda professor-o'qituvchi xodimlarning (o'rindoshlarsiz) umumiy sonidan ayollar ulushi **38,8 % ni**, erkaklar ulushi esa **61,2 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida chet tillaridan dars berayotgan professor-o'qituvchilar soni jami **704** nafarni tashkil etmoqda. Shuningdek, bugungi kunga kelib ta'lim jarayoniga jalb etilgan xorijiy o'qituvchilar va mutaxassislar soni **280** nafarga yetdi.

**Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Jami professor- o'qituvchi xodimlar soni	jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da	ulardan:	
			ayollar	erkaklar
Samarqand viloyati	3,6	100,0	1,5	2,1
<i>shaxarlar:</i>				
Samarqand sh.	3,4	93,2	1,4	2,0
Kattaqo'rg'on sh.	0,1	2,6	0,05	0,05
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	0,1	2,6	0,02	0,08
Bulung'ur				
Jomboy				
Ishtixon				
Kattaqo'rg'on				
Qo'shrabot				
Narpay				
Payariq	0,01	0,1		0,01
Pastdarg'om				
Paxtachi				
Samarqand				
Nurobod				
Urgut	0,06	1,5	0,02	0,04
Toyloq				

Oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchi xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni bo'yicha yuqori ko'rsatkich Samarqand shahri (**3,4 ming**), Kattaqo'rg'on shahri (**0,1 ming**) va Oqdaryo (**0,1 ming**) tumanida qayd etilgan, nisbatan kam ko'rsatkich esa Payariq (**0,01 ming**) va Urgut (**0,06 ming**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) soni

V. Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Samarqand viloyatida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Bakalvriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalvriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Samarqand viloyatida oliy ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistika hisoboti – **1 oliy ta'lim shakli yillik** "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur statistika hisobotini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining statistika hisoboti qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchi xodimlar soni, ta'lim shakllari va turlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchi xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va
ijtimoiy shoha statistikasi bo'limi

Manzil: : Samarkand shahar U.
Tursunov ko'chasi 82 uy
El. manzil: info@samstat.uz
Tel.: 66-235-33-16

